

Yuridik xizmatining asosiy vazifalari:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning tizimidagi bo'limlari, hududiy tuzilmalari va xizmatlari faoliyatida qonunchilikni ta'minlash;

vazirlikning manfaatlarini va huquqlarini muhofaza qilishni ta'minlash;

vazirlikning faoliyatida boshqa davlatlar bilan xalqaro-huquqiy munosabatlarni ta'minlash;

vazirlik va uning tizimidagi bo'limlar, hududiy tuzilmalarning ho'jalik-shartnomaviy faoliyatini tashkil etish, da'vogarlik va suddagi ishlarni olib borish;

vazirlikning barcha harbiy xizmatchilari va xodimlarining manfaatlarini muhofaza etish;

harbiy xizmatchilar va xizmatchilar orasida huquqbuzarlikning oldini olish va tegishli profilaktik ishlarni olib borish;

vazirlik vakolatiga tegishli qonunchilik ijodkorligi yuzasidan qonun va boshqa qonunosti huquqiy aktlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida markaziy apparatning boshqarmalari, bo'limlari va xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

vazirlik vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining takomillashtirilishi bilan bog'lik huquqiy ta'minlash faoliyatini tashkil etish;

vazirlik tizimidagi xizmatlarining faoliyati vakolatlari doirasida qonunchiqaruvchi (vakillik), prokuratura, ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari, jinoiy, fuqaro va ho'jalik sudlari bilan belgilangan tartibda yagona va qulay munosabatni ta'minlash.

Yuridik xizmatining funksiyalari:

vazirlik tizimida tayyorlangan buyruqlar, ko'rsatmalar, direktivalar va boshqa huquqiy norma shakliga ega aktlar loyihalarini amaldagi qonunchilikka mosligini huquqiy nazorat maqsadida tekshirish;

vazirlik tizimida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni tayyorlash va chiqarishda yordam berish va ularning amaldagi qonunchilikka mos bo'lganligiga huquqiy hulosa berish va imzolash;

amaldagi qonunchilikka yoki vazirning buyruqlariga zid bo'lgan aktlarni bekor qilish yohud o'zgartirish uchun choralar qo'rish;

mustaqil ravishda yoki boshqa xizmatlar bilan birgalikda vazirlikning amaldagi buyruklariga tegishli o'zgartirish, ishlamaydigan va o'z kuchini yo'qotgan buyruqlarni esa bekor qilish to'g'risida takliflar kiritish;

vazirlikda mehnat intizomini mustahkamlash, jamoa shartnomasini ishlab chiqish va tayyorlash tadbirlarida ishtirok etish.

ho'jalik shartnomalari va u bilan bog'lik boshqa huquqiy hujjatlar loyihalarini amaldagi qonunchilik talablariga mosligini tekshiradi;

vazirlikning ho'jalik shartnomalari bo'yicha da'vogarlik ishlarini tashkil qiladi va olib boradi;

shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan bahslar bo'yicha da'vo ishlarini olib boradi, da'vo materiallarini tayyorlaydi va ularni ho'jalik sudlariga topshiradi;

vazirlik manfaatlarini himoyalash maqsadida davlat, jamoat va huquqni muhofaza qilish organlarda va tashkilotlarda vakillik qiladi;

vazirlikda ishlab chiqariladigan qonunlar va boshqa normativ aktlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etadi;

vazirlikka moslashtirish uchun belgilangan tartibda kelib tushadigan qonunlar va boshqa huquqiy aktlar loyihalariga mustaqil ravishda yoki vazirlikning boshqa bo'linmalari bilan birga taqriz va hulosalar beradi;

vazirlik xodimlarini intizomiy, moddiy, shuningdek ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi masalasi bo'yicha o'z hulosasini beradi;

majburiy o'ndiriladigan qarzlarni aniqlash maqsadida debitor qarzdorlik holati bo'yicha materiallarni qo'rib chiqish, umidsiz qarzlarni hisobdan chiqarish to'g'risidagi takliflar bo'yicha hulosalar tayyorlaydi;

vazirlik faoliyatida qonunlar ijro etilishini, ularda qabul qilinayotgan aktlar va hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mosligini tekshiradi;

vazirlikning komissiyalari joylarda tekshiruvlar o'tkazganda ularning faoliyati ustidan nazorat qiladi, ishlarning haqiqiy holati bo'yicha tekshiruv natijalariga huquqiy baho beradi. Ushbu komissiya raislari yuridik xizmatiga tekshiruvlarning boshlanishi, jarayoni va natijalari hakida ahborot beradilar;

vazirlikning qasaba uyushmasi qo'mitasiga va boshqa jamoat tashkilotlariga muntazaam huquqiy yordam beradi;

vazirlikning xodimlariga huquqiy masalalar bo'yicha muntazaam huquqiy maslahatlar beradi;

vazir ko'rsatmasi bilan xizmat tekshiruvlarini o'tkazadi;

vazirlikning hududiy boshqarmalari yurist maslahatchilarining faoliyati ustidan nazorat qiladi.